

QARSHI MUHANDISLIK – IQTISODIYOT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.09.2020.T.111.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

QARSHI MUHANDISLIK – IQTISODIYOT INSTITUTI

XAMRAYEV SARDOR ILXOMOVICH

QAYTA TIKLANADIGAN ENERGIYA MANBALARI ASOSIDA
QISHLOQ UYLARINING KOMBINATSIYALASHGAN ISSIQLIK
TA'MINOTI TIZIMINI ISHLAB CHIQISH

05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari
asosidagi energiya qurilmalari

TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Qarshi – 2023

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
потехническим наукам**

**Content of the dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Xamrayev Sardor Ilxomovich

Qayta tiklanadigan energiya manbalari asosida qishloq
uylarining kombinatsiyalashgan issiqlik ta'minoti tizimini
ishlab chiqish 3

Хамраев Сардор Илхомович

Разработка комбинированной системы теплоснабжения сельских
домов на основе возобновляемых источников энергии..... 23

Khamraev Sardor Ilxomovich

Development of a combined heat supply system for rural houses
based on renewable energy sources..... 43

E'lonqilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works 47

QARSHI MUHANDISLIK – IQTISODIYOT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.09.2020.T.111.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

QARSHI MUHANDISLIK – IQTISODIYOT INSTITUTI

XAMRAYEV SARDOR ILXOMOVICH

QAYTA TIKLANADIGAN ENERGIYA MANBALARI ASOSIDA
QISHLOQ UYLARINING KOMBINATSIYALASHGAN ISSIQLIK
TA'MINOTI TIZIMINI ISHLAB CHIQISH

05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari
asosidagi energiya qurilmalari

TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Qarshi – 2023

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2020.2.PhD/T1743 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Qarshi muhandislik iqtisodiyot institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.qmii.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Uzoqov G'ulom Norboyevich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponetlar:

Axatov Jasurjon Saidovich
texnika fanlari doktori

Vardiyashvili Aftandil Asqarovich
texnika fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti huzuridagi PhD.03/30.09.2020.T.111.03 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil «___» _____ soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi, 225-uy. Qarshi muhandislik-iqtisodiyoti instituti konferensiyalar zali. Tel.: (99875) 224-02-89; faks: (99875) 224-13-95, e-mail: kiei_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№___ - raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi, 225-uy. Tel.: (99875) 224-02-89; faks: (99875) 224-13-95, e-mail: kiei_info@edu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «___» _____ kuni tarqatildi.
(2023 yil «___» _____ dagi №___ - raqamli reyestr bayonnomasi).

B.E. Xayriddinov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi v.v.b. t.f.d, professor

X.A. Davlonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, t.f.f.d., dotsent

B. Urishev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahonda bino va inshootlarning issiqlik ta'minoti tizimlarida qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish, aholi uy-joylarining issiqlik ta'minoti tizimlarida an'anaviy yoqilg'i-energiya resurslarini tejash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Dunyoda binolarning issiqlik taminoti tizimlarida 40 foizgacha an'anaviy yoqilg'i-energiya resurslari sarf qilinadi, shundan birlamchi yoqilg'ilarning 50 foizi aholi yashaydigan uylarining hissasiga to'g'ri keladi¹. Shu sababli, aholi uy-joylarining issiqlik ta'minoti tizimlarida tabiiy organik yoqilg'ilarni tejash, yoqilg'i-energetika balansini qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish hisobiga diversifikatsiyalash va energiya tejamkor kombinatsiyalashgan issiqlik ta'minoti tizimlarini joriy etish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi².

Jahonda yashash binolarining issiqlik ta'minoti tizimlarini takomillashtirish, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish va issiqlik-texnik parametrlarini optimallashtirish orqali issiqlik ta'minoti tizimining energiya samaradorligini oshirish hamda an'anaviy energiya resurslarini sarfini kamaytirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishda, jumladan, qishloq uylarining energiya tejamkor issiqlik ta'minoti tizimlarini ishlab chiqish, quyosh energiyasidan samarali foydalanish asosida kombinatsiyalashgan issiqlik ta'minoti tizimlarida energiya sarfini kamaytirish va energiya samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar ustuvor hisoblanadi. Shu sababli, qishloq uylarining issiqlik ta'minoti tizimlari uchun an'anaviy va quyosh kollektorli kombinatsiyalashgan energiya tejamkor issiqlik ta'minoti tizimlarini ishlab chiqish va ularning asosiy issiqlik-texnik parametrlarini asoslashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda aholi yashaydigan uylarni issiqlik energiyasi bilan barqaror ta'minlash maqsadida yangi zamonaviy energiya samarador issiqlik ta'minoti tizimlarini qurish ishlari amalga oshirilib, issiqlik ta'minoti tizimlarini takomillashtirish bo'yicha muayyan natijalarga erishilmoqda. Yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida "...bino va inshootlarning energiya samaradorligini oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish, atmosferaga chiqariladigan zararli gazlar miqdorini kamaytirish..." bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan³. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanib qishloq uylarining issiqlik ta'minoti tizimlarini energiya samaradorligini oshirish, kombinatsiyalashgan issiqlik ta'minoti tizimlarining asosiy parametrlarini optimallashtirish dolzarb ilmiy-texnik vazifa hisoblanadi.

¹ "Solar Heat Worldwide. Global Market Development and Trends in 2021 / Detailed Market Figures 2020". IEA Solar Heating&Cooling Programme, May 2022.

²Allayev K.R. Zamonaviy energetika va uning rivojlanish istiqbollari. –T.: "Fan texnologiyalar nashriyot –matbaa uyi", 2021. 952 b.

³O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi PF-60-sonli farmoni.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarda Yangi O‘zbekistonni taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi” PF-60-son, 2020 yil 10 iyuldagi PQF-4779-son “Iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va mavjud resurslarni jalb etish orqali iqtisodiyot tarmoqlarining yoqilg‘i-energetika mahsulotlariga qaramligini kamaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi Farmonlari, 2019 yil 22 avgustdagi PQ-4422-son “Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejavchi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirishning tezkor chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi va 2019 yil 4 oktabrdagi PQ-4477-son “2019-2030 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi bo‘yicha tadqiqotlar fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. “Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish usullarini rivojlantirish, nanotexnologiyalar, fotonika va boshqa zamonaviy ilg‘or texnologiyalar va qurilmalarni yaratish” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Yashash uylarining issiqlik ta‘minoti tizimlarida quyosh energiyasidan foydalanish sohasidagi tadqiqotlarni rivojlantirishga taniqli xorijlik olimlar, jumladan, K.Sh. Naveen, B.Ch. Evangelos, N.A. Rahim, M.A. Rutkovskiy, N.D. Shishkin, Z.X. Zamaleyev, V.A. Medyansev, O.S. Popel, N.A. Amadziyeva, S.V. Ovcharov, D.S. Strebkov, A.S. Kirichenko, A.A. Baklin, R.A. Amerxanov, V.A. Butuzov, V.V. Xarchenko, YE.V. Bryanseva, V.V. Chemekovlar katta hissa qo‘shgan.

Respublikamizda yashash uylarida talab etiladigan issiqlik energiyasini ta‘minlash uchun gelioqurilmali issiqlik ta‘minoti tizimini ishlab chiqish va takomillashtirish borasida yetakchi olimlar R.A. Zaxidov, R.R. Avezov, Y.K. Rashidov, Sh.M. Mirzayev, A.B. Vardiyashvili, N.R. Avezova, G‘.N. Uzoqov, Z.S. Iskandarov va B.E. Xayriddinovlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Xususan, ular tomonidan yashash uylarining avtonom issiqlik ta‘minoti tizimlarini takomillashtirish, quyosh qurilmalarini qo‘llash asosida energiya tejamkor issiqlik ta‘minoti tizimlarini ishlab chiqish bo‘yicha tadqiqotlar olib borilgan hamda past potentsialli quyosh issiqlik-sovuqlik ta‘minoti tizimlari taklif qilingan.

Erishilgan ijobiy ilmiy natijalarga qaramasdan, hozirgi vaqtda markazlashgan issiqlik ta‘minotidan uzoqda joylashgan hududlardagi qishloq uylarining energiya tejamkor kombinatsiyalashgan issiqlik ta‘minoti tizimlarini ishlab chiqish, quyosh issiq polli isitish tizimlarining energiya samaradorligini oshirish, issiqlik ta‘minoti tizimlarida hududning past potentsialli quyosh issiqligini samarali qo‘llanilishi bo‘yicha yetarlicha tadqiqotlar o‘tkazilmagan. Shuningdek, quyosh energiyasi va an‘anaviy energiya manbalari asosida ishlaydigan kombinatsiyalashgan issiqlik ta‘minoti tizimlarini ishlab chiqish, ularni issiqlik-texnik parametrlarini asoslash, quyosh issiq polli isitish tizimining ratsional sxemalarini ishlab chiqish, an‘anaviy yoqilg‘ilardan foydalanish ulushini kamaytirish, avtonom va lokal iste‘molchilarni

isitish mavsumida uzluksiz issiqlik energiyasi va yil davomida issiq suv bilan ta'minlash masalalari yetarlicha ko'rib chiqilmagan. Shu sababli, qishloq uylarining energiya tejamkor gelioqurilmali kombinatsiyalashgan issiqlik ta'minoti tizimini ishlab chiqish va parametrlarini optimallashtirish dolzarb ilmiy-texnik masala hisoblanadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Qarshi muhandislik - iqtisodiyot institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq IL-4821091659-son "Hudud iqlimining meteorologik xususiyatlarini hisobga olgan holda gibrid issiqlik ta'minoti tizimlarining ilmiy-texnik asoslarini ishlab chiqish" mavzusidagi fundamental loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi quyosh qurilmalari asosida qishloq uylarining kombinatsiyalashgan avtonom issiqlik ta'minoti tizimini ishlab chiqish va energiya samaradorligini asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

an'anaviy energiya manbalari asosidagi qishloq namunaviy uylarining avtonom issiqlik ta'minoti tizimlarini energetik tahlil qilish;

an'anaviy va kombinatsiyalashgan quyosh qurilmalari asosida qishloq uyining isitish va issiq suv ta'minoti tizimining issiqlik sxemasini ishlab chiqish;

nostatsionar harorat rejimida qishloq uyining issiqlik ta'minoti tizimining matematik modelini ishlab chiqish;

kombinatsiyalashgan quyosh qurilmalari asosida qishloq uyining issiqlik balansini modellashtirish;

quyosh kollektorli suvli issiq pol tizimining issiqlik-gidrodinamik rejimini modellashtirish va parametrlarini optimallashtirish;

kombinatsiyalashgan quyosh qurilmalari asosidagi avtonom issiqlik ta'minoti tizimining energetik samaradorligini asoslash.

Tadqiqotning obyekti sifatida qishloq namunaviy uylarining gelioqurilmali va an'anaviy yoqilg'ida ishlovchi kombinatsiyalashgan issiqlik ta'minoti tizimi olingan.

Tadqiqotning predmeti qishloq namunaviy uylarining issiqlik balansi, kombinatsiyalashgan issiqlik ta'minoti tizimida issiqlik almashinuv jarayonlari, kombinatsiyalashgan avtonom issiqlik ta'minoti tizimining issiqlik va gidrodinamik rejimlari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida matematik modellashtirish, issiqlik texnikasining nazariy asoslari, o'xshashlik nazariyasi, issiqlik almashinuv jarayonlarini tajribaviy tadqiqot qilish va tajriba natijalarini umumlashtirish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

hududning quyosh nurlanish issiqligi potensialini o'zgarishini hisobga olgan holda, qishloq uyining avtonom issiq suv ta'minoti va isitish tizimini uzluksiz issiqlik energiyasi bilan ta'minlaydigan past potentsialli quyosh issiqlik qurilmalari va an'anaviy suv isitish qozoni asosidagi kombinatsiyalashgan issiqlik ta'minoti tizimi ishlab chiqilgan;

tashqi muhit, bino ichki havosi va devori konstruksiyasining issiqlik-texnik parametrlarini o'zgarishini hisobga olgan holda gelioqurilmalar va an'anaviy yoqilg'ida ishlovchi suv isitish qozonidan iborat kombinatsiyalashgan issiqlik ta'minoti tizimli uyning nostatsionar harorat rejimini hisoblash imkonini beradigan, issiqlik balansi tenglamalari asosidagi matematik modeli ishlab chiqilgan;

quyosh kollektorli suvli issiq pol isitish tizimini issiqlik-gidrodinamik rejimlarining tajribaviy tadqiqoti natijalarini umumlashtirish asosida suvli issiq pol quvurlarining diametrlari va joylashish qadamiga bog'liqlik holda gidravlik qarshilik va issiqlik berish koeffitsiyentlarini aniqlash imkonini beradigan empirik tenglamalar olingan;

Glauzer mezoni asosida issiqlik tashuvchining laminar va turbulent harakati rejimlarini hisobga olgan holda, quyosh kollektorli suvli issiq pol isitish tizimining yuqori issiqlik samaradorligini ta'minlash imkonini beradigan quvurning diametri, joylashish qadami va suv sarfining optimal qiymatlari aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

qishloq uylarining isitish va issiq suv ta'minoti tizimlarida talab etilgan harorat rejimini ta'minlash uchun gelioqurilmali va an'anaviy yoqilg'ida ishlovchi takomillashtirilgan kombinatsiyalashgan issiqlik ta'minoti tizimi ishlab chiqilgan;

qishloq uylarining isitish tizimida energiya tejash uchun past potentsialli quyosh kollektorli suvli issiq pol tizimi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi matematik modellashtirish, zamonaviy tadqiqot usullaridan foydalanish asosida olingan natijalar bilan asoslanadi, issiqlik almashinuv nazariyasi, issiqlik-texnik tajribalarni o'tkazish va natijalarni qayta ishlashning umum e'tirof etilgan usullari qo'llanilganligi hamda, bir xil fizikaviy sharoitlarda hisobiy va tajriba natijalarini mos kelishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati qishloq uylarining issiqlik ta'minoti tizimlarida energiya sarfini kamaytiruvchi parametrlarni va tashqi havo haroratini o'zgarishini hisobga olgan holda, uyning harorat rejimini aniqlash imkonini beradigan matematik model va ularni hisoblash algoritmi, kombinatsiyalashgan quyosh kollektorli suvli issiq pol tizimi quvurlarida gidravlik qarshilik va issiqlik berish koeffitsiyentlarini aniqlaydigan empirik tenglamalar olinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati quyosh issiqlik qurilmalari asosida qishloq uylarining kombinatsiyalashgan issiqlik ta'minoti tizimini ishlab chiqishdan iborat bo'lib, ishlab chiqilgan tizim qishloq uylarining issiqlik ta'minoti tizimlarida organik yoqilg'i sarfini kamaytirishga imkon berishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qayta tiklanadigan energiya manbalari asosida qishloq uylarining kombinatsiyalashgan issiqlik ta'minoti tizimini ishlab chiqish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Qashqadaryo viloyati "Issiqlik manbai" DUK tasarrufidagi namunaviy uylarning isitish va issiq suv ta'minoti tizimlarida energiya tejamkor quyosh kollektorli kombinatsiyalashgan issiqlik ta'minoti tizimi joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligining 2022 yil 23 avgustdagi №04/02-4001-son ma'lumotnomasi). Natijada, isitish maydoni 180 m²

bo'lgan namunaviy uyda bir yil davomida 70800-70830 kVt·soat energiya tejalishiga erishilgan;

Qashqadaryo viloyati "Issiqlik manbai" DUK tasarrufidagi namunaviy uylarning isitish tizimlarida kombinatsiyalashgan energiya tejamkor quyosh kollektorli suvli issiq polli isitish tizimi joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligining 2022 yil 23 avgustdagi №04/02-4001-son ma'lumotnomasi). Natijada, isitish maydoni 180 m² bo'lgan namunaviy uyda isitish mavsumida 26000-26310 kVt·soat energiya tejalishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 10 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, shu jumladan, 4 ta xalqaro va 6 ta respublika anjumanlarida aprobatsiyadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 26 ta ilmiy ishlar chop etilgan bo'lib, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya qilingan 4 ta xalqaro va 6 ta respublika jurnallarida ilmiy maqolalar nashr qilingan hamda EHM uchun 4 ta dasturiy mahsulotga mualliflik guvohnomasi olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 118 betni tashkil etadi.


DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari shakllantirilgan, tadqiqot obyekti va predmeti tavsiflangan hamda respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi aniqlangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, ishning aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Qishloq uylarining issiqlik ta'minoti tizimlari tahlili**" deb nomlangan birinchi bobida jahon amaliyotida qayta tiklanadigan energiya manbalaridan issiqlik ta'minoti tizimida foydalanish usullari, namunaviy qishloq uylarini avtonom issiqlik ta'minoti tizimlarining energetik tahlili, shuningdek, Qashqadaryo viloyati hududida quyosh energiyasi resurslarining potentsiali tadqiqoti natijalari keltirilgan. Jahonda bajarilgan ilmiy ishlar tahlili shuni ko'rsatadiki, yashash uylarining issiqlik ta'minoti tizimlarini uzluksiz ishlashini ta'minlovchi energiya tejamkor kombinatsiyalashgan issiqlik ta'minoti tizimlarini ishlab chiqish muammolari kam o'rganilgan, shuningdek, kombinatsiyalashgan issiqlik ta'minoti tizimlarini issiqlik-texnik parametrlarini asoslash, quyosh issiq polli isitish tizimining ratsional sxemalarini ishlab chiqish, avtonom va lokal iste'molchilarni isitish mavsumida uzluksiz issiqlik energiyasi va yil davomida issiq suv bilan ta'minlash masalalari yetarlicha tadqiqot qilinmagan. O'tkazilgan ilmiy tahlil asosida va yashash uylarining issiqlik ta'minoti tizimlarida energiya tejash sohasida tadqiqotlar ko'lamining kengayish tendensiyalarini hisobga olib dissertatsiyaning maqsadi va vazifalari shakllantirildi.

Dissertatsiyaning “**Quyosh qurilmalari asosida qishloq uylarining kombinatsiyalashgan issiqlik ta’minoti tizimini modellashtirish va hisoblash**” deb nomlangan ikkinchi bobida quyosh qurilmalari asosida ishlaydigan uyning issiqlik yuklamasini hisoblash natijalari, quyosh uyining issiqlik balansining matematik modeli va nazariy tadqiqoti natijalari, nostatsionar rejimda quyosh uyini matematik modellashtirish va hisoblash natijalari keltirilgan.

Kombinatsiyalashgan issiqlik ta’minoti tizimini tadqiqot qilish uchun ichki yuzasi 12 m² va hajmi 36 m³ bo‘lgan tajriba quyosh uyi qurilgan. Tajriba quyosh uyining issiqlik balansini matematik modeli 1-rasmda ko‘rsatilgan hisobiy sxema asosida tuzilgan.



1-rasm. Tajriba quyosh uyining issiqlik balansi sxemasi.

Tadqiqot qilinayotgan quyosh uyi issiqlik balansining matematik modeli quyidagi tenglamalar orqali ifodalanadi:

$$Q_{kel} = Q_{sarf} \quad (1)$$

$$Q_{kel} = Q_{rad} + Q_{i.p} + Q_{i.b} \quad (2)$$

$$Q_{sarf} = Q_{kon} + Q_{ich} + Q_{vent} + Q_{inf} + Q_{dev} + Q_{sh} + Q_p \quad (3)$$

$$\rho_h V_h c_h \frac{dt_n}{d\tau} = Q_{rad} + Q_{i.p} + Q_{i.b} - Q_{ven} - Q_{dev} - Q_{sh.o.y} - Q_{p.o.y} - Q_{inf} \quad (4)$$

Quyosh uyining ichki havosiga konvektiv issiqlik tarqalishi:

$$Q_{kon} = \sum_1^n S \cdot \alpha_d \cdot (t_i - t_r) \quad (5)$$

Ichki yo‘qotiladigan issiqlik:

$$Q_{ich} = H_0 \cdot n_0 + H_l \cdot n_l + Q_b \quad (6)$$

Quyosh nurlanishi tufayli issiqlik uzatilishi:

$$Q_{rad} = q_{nur} \cdot F_{oy} \cdot k_{o'it} \cdot \alpha_{yut}, \quad (7)$$

Issiq poldan uyning ichki havosiga uzatiladigan issiqlik:

$$Q_{i.p} = G_{i.s} c_{i.s} (t_k - t_p) \quad (8)$$

Isitish batareyasidan uying ichki havosiga uzatiladigan issiqlik:

$$Q_{i.b} = G_{i.s} c_{i.s} (t_k - t_{ch}) \quad (9)$$

Ventilyatsiya orqali yo'qotiladigan issiqlik:

$$Q_{ven} = G_{T.h} \cdot \rho_{T.h} \cdot c_{T.h} \cdot (t_i - t_T) \quad (10)$$

Quyosh uyining devorlari orqali yo'qotiladigan issiqlik:

$$Q_{dev} = \frac{\Delta T}{\Sigma R} = \frac{F_d}{R_d} (t_i - t_T) + \frac{F_{oy}}{R_{oy}} (t_i - t_T) \quad (11)$$

Shift qismi orqali yo'qotiladigan issiqlik:

$$Q_{sh.o.y} = \frac{F_{sh}}{R_{sh}} (t_i - t_T) \quad (12)$$

Pol qismi orqali yo'qotiladigan issiqlik:

$$Q_{p.o.y} = \frac{F_p}{R_p} (t_i - t_T) \quad (13)$$

Infiltratsiya orqali yo'qotiladigan issiqlik energiyasi devor konstruksiyasi orqali yo'qotiladigan issiqlikning 10% qabul qilinadi:

$$Q_{inf} = 0,1 \cdot Q_{dev} \quad (14)$$

(1-14) tenglamalarni tashkil etuvchilarining qiymatini issiqlik balansi tenglamasidagi (4) ifodaga qo'yib issiqlik balansining umumiy ko'rinishini quyidagicha ifodalash mumkin:

$$\begin{aligned} \rho_h V_h c_h \frac{dt_i}{d\tau} = & q_{nur} \cdot F_{oy} \cdot k_{oit} \cdot \alpha_{yut} + G_{i.s} c_{i.s} (t_k - t_p) + G_{i.s} c_{i.s} (t_k - t_{ch}) - \\ & - G_{T.h} \cdot \rho_{T.h} \cdot c_{T.h} \cdot (t_i(\tau) - t_T) - \left(\frac{F_d}{R_d} (t_i(\tau) - t_T) + \frac{F_{oy}}{R_{oy}} (t_i(\tau) - t_T) \right) \cdot 1,1 - \\ & - \frac{F_{sh}}{R_{sh}} \cdot (t_i(\tau) - t_T) - \frac{F_p}{R_p} \cdot (t_i(\tau) - t_T) \end{aligned} \quad (15)$$

(15) tenglamani yechish uchun birinchi tartibli chiziqli differensial tenglamalarni Eyler usulidan foydalanib $\tau = 0, t_i(\tau) = t_0$ shart asosida quyidagi tenglama (16) olingan.

Tajriba quyosh uyining ichki harorat rejimini modellashtirish Matlab/Simulinkdasturida bajarilgan va hisoblari natijalari 2-5-rasmlarda keltirilgan.


$$t_i(\tau) = \frac{\left(\frac{q_{nur} \cdot F_{oy} \cdot k_{oit} \cdot \alpha_{yut} + G_{i.s} c_{i.s} (t_k - t_p) + G_{i.s} c_{i.s} (t_k - t_{ch})}{G_h \cdot \rho_h \cdot c_h + \left(\left(\frac{F_d}{R_d} + \frac{F_{oy}}{R_{oy}} \right) \cdot 1,1 + \frac{F_{sh}}{R_{sh}} + \frac{F_p}{R_p} \right)} \right) + t_T \left(\exp \left(\frac{G_h \cdot \rho_h \cdot c_h + \left(\left(\frac{F_d}{R_d} + \frac{F_{oy}}{R_{oy}} \right) \cdot 1,1 + \frac{F_{sh}}{R_{sh}} + \frac{F_p}{R_p} \right)}{\rho_h \cdot c_h \cdot V_h} \cdot \tau \right) - 1 \right) + t_0}{\exp \left(\frac{G_h \cdot \rho_h \cdot c_h + \left(\left(\frac{F_d}{R_d} + \frac{F_{oy}}{R_{oy}} \right) \cdot 1,1 + \frac{F_{sh}}{R_{sh}} + \frac{F_p}{R_p} \right)}{\rho_h \cdot c_h \cdot V_h} \cdot \tau \right)} \quad (16)$$

Quyosh uyining ichki harorat rejimini modellashtirish natijalari shuni ko'rsatadiki, yilning qish mavsumida (Qarshi tumani sharoitida) tashqi havo harorati -6°C bo'lganda maydoni 12 m^2 bo'lgan quyosh uyida talab etilgan harorat rejimini ($+20...+22^{\circ}\text{C}$) ta'minlash uchun quyosh radiatsiyasining miqdori 150 Vt/m^2 dan yuqori bo'lishi talab etiladi (2-rasm).


Qish mavsumida tashqi havo harorati $0...5^{\circ}\text{C}$ bo'lganda va quyosh radiatsiyasining miqdori $150...500 \text{ Vt/m}^2$ bo'lganda quyosh uyi ichidagi harorat $19...30^{\circ}\text{C}$ gacha yetadi, bu qiymat uy ichida talab etilgan harorat rejimini ta'minlash uchun yetarli hisoblanadi (3 va 4-rasmlar).

Quyosh uyining umumiy issiqlik balansida quyosh radiatsiyasining ta'sirini inobatga olsak, u holda $q=500 \text{ Wt/m}^2$ bo'lgan sharoitda isitishga zarur issiqlik yuklamasi ikki marta kamayadi ($t_T=-10^\circ\text{C}$) (5-rasm).


Shunday qilib, quyosh uyining ichki harorat rejimining matematik modeli tushayotgan quyosh radiatsiyasi va tashqi havo haroratiga bog'liq holda quyosh uyi ichki haroratini rostdash imkonini beradi.




2-rasm. Tashqi havoning harorati -6°C bo'lganda $\tau=0$, $t_i(\tau)=t_0$, $t_0=10^\circ\text{C}$ shart asosida statik holatda quyosh uyining ichki haroratini o'zgarish grafigi.



3-rasm. Tashqi havoning harorati 0°C bo'lganda $\tau=0$, $t_i(\tau)=t_0$, $t_0=10^\circ\text{C}$ shart asosida statik holatda quyosh uyining ichki haroratini o'zgarish grafigi.



4-rasm. Tashqi havoning harorati 5°C bo'lganda $\tau=0$, $t_i(\tau)=t_0$, $t_0=10^\circ\text{C}$ shart asosida statik holatda quyosh uyining ichki haroratini o'zgarish grafigi.



5-rasm. Tashqi havoning harorati -10°C bo'lganda $\tau=0$, $t_i(\tau)=t_0$, $t_0=10^\circ\text{C}$ shart asosida statik holatda quyosh uyining ichki haroratini o'zgarish grafigi.

Quyosh uyining harorat rejimini chuqur tadqiqot qilish uchun quyosh uyining nostatsionar harorat rejimini dinamik modeli elektro-issiqlik o'xshashlik nazariyasiga asoslangan issiqlik-elekt sxemasi asosida ishlab chiqilgan bo'lib, u uy ichidagi haroratni devor, tashqi muhit va quyosh radiatsiyasiga bog'liq holda matematik modellashtirish imkonini beradi. Quyosh uyining issiqlik ta'minoti tizimining dinamik holati uchun issiqlik balansi tenglamasi quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$\left\{ \begin{array}{l} c_1 m_1 \frac{dt_1}{d\tau} = \alpha_n \cdot F \cdot (t_n - t_1) - \frac{F}{R_1} \cdot (t_1 - t_2) \\ c_2 m_2 \frac{dt_2}{d\tau} = \frac{F}{R_1} \cdot (t_1 - t_2) - \frac{F}{R_2} \cdot (t_2 - t_3) \\ c_3 m_3 \frac{dt_3}{d\tau} = \frac{F}{R_2} \cdot (t_2 - t_3) - \frac{F}{R_3} \cdot (t_3 - t_4) - \alpha_T F \cdot (t_4 - t_T) + q_{nur} \cdot F \cdot k_{ort} \cdot \alpha_{ort} \\ c_n m_n \frac{dt_n}{d\tau} = G_c \cdot c_c \cdot (t_k - t_{ch}) + q_{nur} \cdot F_{oy} \cdot k_{p.o.y} \cdot \alpha_{p.o.y} - G_h \cdot c_h (t_i - t_T) - \\ - kF \cdot (t_i - t_T) - \frac{F_{oy}}{R_{oy}} \cdot (t_n - t_T) \end{array} \right. \quad (17)$$

(17) tenglamaning o'ng va chap tomonlarini soddalashtirish amalini bajarish orqali quyidagi tenglamalarga ega bo'lamiz:


$$\frac{dt_1}{d\tau} = \frac{(-\alpha_n \cdot F - \frac{F}{R_1})}{m_1 c_1} \cdot t_1 + \frac{F}{R_1 \cdot m_1 c_1} \cdot t_2 + \frac{\alpha_n F}{m_1 c_1} t_i \quad (18)$$

$$\frac{dt_2}{d\tau} = \frac{F}{R_1 \cdot m_2 c_2} \cdot t_1 + \frac{\frac{F}{R_1} \cdot \frac{F}{R_2}}{m_2 c_2} \cdot t_2 + \frac{F}{R_2 \cdot m_2 c_2} \cdot t_3 \quad (19)$$

$$\frac{dt_3}{d\tau} = \frac{F}{R_2 \cdot m_3 c_3} \cdot t_2 + \frac{\frac{F}{R_2} \cdot \frac{F}{R_3}}{m_3 c_3} \cdot t_3 + \frac{\frac{F}{R_3} - \alpha_T \cdot F}{m_3 c_3} \cdot t_4 + \frac{\alpha_T \cdot F}{m_3 c_3} t_T + \frac{F \cdot k_{ott} \cdot \alpha_{ott}}{m_3 c_3} \cdot q_{nur} \quad (20)$$

$$\frac{dt_n}{d\tau} = \left(\frac{-G_c \cdot c_c - kF - \frac{F_{oy}}{R_{oy}}}{m_n c_n} \right) \cdot t_n + \left(\frac{G_x \cdot c_x + kF + \frac{F_{oy}}{R_{oy}}}{m_n c_n} \right) \cdot t_T + \left(\frac{1}{m_n c_n} \right) \cdot Q_{is} + \left(\frac{k_{p.o.y} \cdot \alpha_{p.o.y} \cdot F_{oy}}{m_n c_n} \right) \cdot q_{nur} \quad (21)$$

Tajriba quyosh uyi harorat rejimini dinamik modellashtirish Matlab/Simulinkdasturida xarakterli kunlarda bajarilgan hisoblari natijalari 6-rasmda ko'rsatilgan.



a) 2020 yil 29 dekabr; b) 2021 yil 4 yanvar.

6-rasm. Xarakterli kunlar uchun quyosh uyining harorat xarakteristikalari

6-rasmda keltirilgan hisob natijalaridan ko'rinib turibdiki, tashqi havo harorati ortganda va quyosh radiatsiyasi $q_p \geq 400 \dots 500 \text{ Vt/m}^2$ bo'lganda uyning ichki havosi harorati ham ortadi. Taklif etilgan dinamik model asosida belgilangan vaqt intervalida quyosh uyida zaruriy harorat rejimini o'rnatish imkoniyatlarini baholash mumkin.

Shunday qilib, issiqlik-elektr sxemasi asosida tuzilgan quyosh uyining nostatsionar harorat rejimini dinamik modeliquyosh uyining ichki haroratini rostdlash va tejaladigan energiya miqdorini aniqlash imkonini beradi.


Dissertatsiyaning **“Quyosh qurilmalari asosida qishloq uylarining kombinatsiyalashgan issiqlik ta'minoti tizimini ishlab chiqish va tadqiqot qilish”** deb nomlangan uchinchi bobida kombinatsiyalashgan quyosh issiqlik ta'minoti tizimining issiqlik-texnikaviy parametrlari, kombinatsiyalashgan quyosh isitish va issiq suv ta'minoti tizimlari hamda kombinatsiyalashgan issiqlik ta'minoti tizimining tajriba tadqiqotlari natijalari keltirilgan.

Qishloq namunaviy uylarida an'anaviy yoqilg'i-energiyaresurslarini (tabiiy gaz, ko'mir va h.k.z.) tejash maqsadida uyni uzluksiz issiqlik energiyasi bilan ta'minlash uchun quyosh energiyasi va an'anaviy yoqilg'i asosidagi kombinatsiyalashgan issiqlik ta'minoti tizimi ishlab chiqilgan (7-rasm).

Taklif etilgan kombinatsiyalashgan issiqlik ta'minoti tizimi yashash uylarini uzluksiz ravishda issiqlik energiyasi bilan ta'minlash uchun xizmat qiladi, batareya


va issiq pol tizimi yordamida isitish hamda yil davomida issiq suv bilan ta'minlash imkonini beradi.

Kombinatsiyalashgan issiqlik ta'minoti tizimi sxemalari (7-rasm) quyosh energiyasi va an'anaviy yoqilg'i asosidagi isitish va issiq suv ta'minoti tizimlarining samaradorligini baholash hamda uying harorat rejimlarini modellashtirish va tajribaviy tadqiqot qilish uchun mo'ljallangan. Ishlab chiqilgan kombinatsiyalashgan avtonom issiqlik ta'minoti tizimi (ITT) issiq suv ta'minoti (IST) (8, a-rasm) va isitish tizimlaridan (8, b-rasm) iborat. Kombinatsiyalashgan quyosh IST tizimining tajribaviy tadqiqotlari 2020 yil martdan 2021 yil fevralgacha oylar kesimida va har oyning xarakterli kunlarida o'tkazildi (9-rasm).



1, 35-quyosh kollektorlari; 2, 6, 8, 10, 11, 13, 14, 15, 16, 18, 19, 22, 23, 24, 26, 27, 28, 30, 33, 34-ventillar; 3-kengaytiruvchi bak; 4, 12, 25, 32-sirkulyatsion nasoslar; 5-suvli issiq pol tizimi; 7-qo'shimcha suv; 9-suv qizdirish qozoni; 17-isitish batareyalari; 20, 21-suv sarflash jo'mragi; 29-elektr suv qizdirgich; 31-sovuq suv idishi, 36-FEP.

7-rasm. Kombinatsiyalashgan issiqlik ta'minoti tizimining prinsipial sxemasi (a) va umumiy ko'rinishi (b).




a) 1-quyosh kollektori; 2, 3, 4, 6, 8, 9, 10, 12, 13, 14, 16, 17-ventillar; 3-sovuq suv idishi; 4-kengaytiruvchi bak; 6-elektr suv qizdirgich; 8-nasos; 13, 18-suv sarflash jo'mragi;
 b) 1-quyosh kollektori; 2, 3, 4, 6, 8, 9, 10, 12, 13, 14, 16-ventillar; 11, 18-sirkulyatsion nasoslar; 5-suvli issiq pol tizimi; 7-isitish batareyalari; 15-kengaytiruvchi bak; 17-qo'shimcha suv; 19-suv qizdirish qozoni.

8-rasm. Kombinatsiyalashgan IST (a) va isitish tizimlarining (b) prinsipial sxemalari.

O'tkazilgan tajriba tadqiqotlari natijalari shuni ko'rsatadiki, 2020 yil martdan 2021 yil fevralgacha IST tizimini ishlash vaqtida quyosh radiatsiyasi miqdori 7,96...32,36 MJ/kun bo'lib, yuzasi 1,5 m² bo'lgan quyosh kollektori yordamida

7,34...29,86 MJ/kun miqdorida foydali energiya olindi, tizimga bir kunlik issiqlik yuklamasi yoz mavsumida 21,38 MJ/kun va qish mavsumida 24,88 MJ/kun bo‘lib, quyosh kollektorining qoplash koeffitsiyenti 0,29...1,4 ni tashkil etdi.




1-issiqlik yuklamasi; 2-quyosh kollektoridan olingan foydali energiya; 3-elektir qizdirgichdan uzatilgan energiya; 4-akkumulyatsiyalangan energiya.

9-rasm. Kombinatsiyalashgan IST tizimida o‘tkazilgan tajriba tadqiqotlari natijalari

2020 yil martdan 2021 yil fevralgacha ISTtizimini ishlash vaqtida 1,33...18,17 MJ/kun ortiqcha energiya bak-akkumulyatorda akkumulyatsiyalandi, quyosh kollektorida olingan foydali energiya miqdori 170,6...810,42 MJ/oy va qoplash koeffitsiyenti 0,23...1,33 tashkil etdi.

Quyosh uyining kombinatsiyalashgan isitish tizimining tajribaviy tadqiqotlari Qarshi shahri iqlim sharoitida 2020 yil 15 oktabrdan 2021 yil 15 martgacha bo‘lgan

isitish mavsumida oylar kesimida va har oyning xarakterli kunlarida o‘tkazildi (10-rasm).




1-tashqi havo harorati; 2-issilik yuklamasi; 3-quyosh kollektoridan olingan foydali energiya; 4-suv qizdirish qozonidan uzatilgan energiya; 5-ichki havo harorati

10-rasm. Kombinatsiyalashgan isitish tizimida o‘tkazilgan tajriba tadqiqotlari natijalari

Olib borilgan tajribalar natijasida 2020 yil oktabrdan 2021 yil martgacha isitish mavsumida quyosh radiatsiyasi miqdori 7,96...17,96 MJ/m² (kun bo‘lib, foydali maydoni 3,5 m² bo‘lgan quyosh kollektori yordamida 17,13...38,67 MJ/kun miqdorida foydali energiya olindi va isitish mavsumida 1,53...37,27 MJ/kun miqdorida ortiqcha energiya zahiralandi. Shuningdek, tashqi havo harorati -6...17°C bo‘lganda uyning ichki havosini 18...24°C gacha isitishda quyosh kollektorlarining qoplash koeffitsiyenti 0,15...0,76 tashkil etdi.

Gelioqurilmalar asosidagi quyosh uyining kombinatsiyalashgan ITTning tajribaviy tadqiqotlari 2020 yil 15 oktabrdan 2021 yil 15 martgacha bo‘lgan isitish mavsumida oylar kesimida va har oyning xarakterli kunlarida o‘tkazildi (11-rasm).




O‘tkazilgan tajriba natijalariga ko‘ra 2020 yil oktabrdan 2021 yil martgacha isitish mavsumida quyosh radiatsiyasi miqdori $7,96 \dots 17,96 \text{ MJ/m}^2 \cdot \text{kun}$ bo‘lib, yuzasi $3,5 \text{ m}^2$ va $1,5 \text{ m}^2$ bo‘lgan quyosh kollektorlari yordamida $24,5 \dots 55,2 \text{ MJ/kun}$ miqdorida foydali energiya olindi va isitish mavsumida $3,8 \dots 38,0 \text{ MJ}$ ortiqcha energiya akkumulyator bakiga zahiralandi.

Isitish mavsumidatashqi havo harorati $-6 \dots 17^\circ\text{C}$ bo‘lganda issiqlik ta‘minoti tizimiga issiqlik yuklamasining $20 \dots 50\%$ qismi quyosh energiyasidan qoplandi, natijada an‘anaviy suv qizdirish qozoniga yoqiladigan yoqilg‘i $33 \dots 70\%$ gacha, elektr qizdirgichda elektr energiyasi $66 \dots 86\%$ gacha tejab qolindi.

Dissertatsiyaning “**Quyosh kollektorli suvli issiq pol tizimini tadqiqot qilish**” deb nomlangan to‘rtinchi bobida issiq polli tajriba qurilmasining tavsifi, tajribani o‘tkazish uslubi, quyosh kollektorli suvli issiq pol tizimining quvurida gidrodinamika va issiqlik almashinuvi bo‘yicha o‘tkazilgan tajriba natijalari, natijalarni umumlashtirish asosida olingan empirik tenglamalar hamda kombinatsiyalashgan issiqlik ta‘minoti tizimining energiya samaradorlik ko‘rsatkichlari keltirilgan.

Quyosh uyi isitish tizimining samaradorligini oshirish uchun kombinatsiyalashgan quyosh kollektorli suvli issiq pol tizimi ishlab chiqildi va va sinovdan o‘tkazildi (12-rasm). Taklif etilgan quyosh kollektorli suvli issiq pol tizimini tadqiqot qilish, suvli issiq pol tizimini gidrodinamik va issiqlik almashinuv jarayonlarini modellashtirish, issiq pol quvurining diametri va joylashish qadamini optimal parametrlarini aniqlash bo‘yicha tajriba tadqiqotlari o‘tkazildi.

Tajriba tadqiqotlari issiq polli tizimning asosiy parametrlarning quyidagi oralig‘ida olib borilgan: issiq suvning sarfi: laminar oqim rejimida $G=0,0043\div 0,02$ kg/s, turbulent oqim rejimida $G=0,07\div 0,093$ kg/s; issiq suvning o‘rtacha harorati $t_s = 35 \dots 50^\circ\text{C}$; pol yuzasidagi o‘rtacha harorat $t_p = 26^\circ\text{C}$; quvurning diametri $d=0,016$ m; quvurlarni joylashish qadami $s=0,1$ m, $s=0,15$ m, $s=0,2$ m, $s=0,25$ m, $s=0,3$ m; issiq suvning issiq pol quvuridagi tezligi 1 m/s dan oshmasligi kerak.



1-quyosh kollektori; 2, 15, 17, 18-uch yo‘lli ventillar; 3-sovuq suv baki; 4, 6, 7, 8-ventillar; 5-sovuq suvni uzatilishi; 9, 12, 14, 20-sarf o‘lchagichlar; 10, 13, 19-sirkulyatsion nasoslar; 11-bak-akkumulyator; 16-issiq pol tizimi; 21, 22-konturni suv bilan to‘ldirish va bo‘shatish.


12-rasm. Quyosh kollektorli issiq pol tizimining prinsipial sxemasi(a) va umumiy ko‘rinishi (b).

Issiqlik suvning laminar va turbulent oqim rejimlarida issiq pol quvurining turli joylashish qadamida va issiq suvning turli haroratlarida quvurning gidravlik qarshilik koeffitsiyenti va nasos quvvati bo‘yicha tajriba natijalari 13-rasmda $\xi = f(Re)$ va $N = f(Re)$ grafiklar shaklida ko‘rsatilgan.

Issiqlik suvning laminar va turbulent oqim rejimlarida suvli issiq pol quvurlarida olingan tajriba natijalarini umumlashtirish asosida gidravlik qarshilik koeffitsiyentini aniqlash uchun quyidagi empirik tenglamalar olingan:

laminar oqim rejimida:

$$\xi = \frac{20,44}{Re^{0,9295} Pr_s^{0,018}} \left(\frac{Pr_d}{Pr_s}\right)^{1,038} \left(\frac{GrPr}{Re}\right)^{0,014} \quad (22)$$



